Ro'ziyeva Farzona Komiljon qizi	
Мировой финансовый кризис и его влияния на состояние экономики Узбекистана	1076
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи	
Task mapping and job scheduling implications of fdi inflows and governance quality metrics	1081
Nilufar Zikirullaeva Dilmurod qizi	



Uzoq muddatli aktivlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish.....	1087
Hakimov Faxritdin Abdusattorovich	
O'zbekistonda tadbirkorikni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari	1093
Djo'rayeva Lola Abdugabbarovna	
Yo'l qurilish tashkilotlarida yo'l qurilish ko'lamini oshirib, samarali resurslar taqsimotini ishlab chiqish.....	1099
Raximov Dilshodjon Turdiali o'g'li	
Ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari	1104
Karimova Komila Daniyarovna	



ILG'OR XORIJ TAJRIBALARIDAN O'ZBEKISTON AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Karimova Komila Daniyarovna

i.f.n., dots. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, Toshkent O'zbekiston

Annotatsiya: Maqolada ilg'or xorij tajribalaridan O'zbekiston amaliyotida foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Jahonning ayrim davlatlarida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tutgan o'rnini, mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xodimlari klassifikatsiyasi, turli mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tasniflash mezonlari (ishchilar soni bo'yicha) hamda 2024-yilda Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesda bandlik ulushi tahlil qilingan va tegishli tartibda xulosalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik subyektlari, kichik va o'rta biznes, tasniflash mezonlari, bandlik, milliy iqtisodiyot.

Abstract: The article examines the possibilities of using advanced foreign experiences in the practice of Uzbekistan. The role of small business and entrepreneurship in different countries of the world, the classification of small business and private entrepreneurship employees in the country, the criteria for classifying small business and private entrepreneurship in different countries (by number of employees), and the share of employment in small and medium-sized businesses in developing countries in 2024 are analyzed and conclusions are drawn accordingly.

Key words: small business, business entities, small and medium-sized businesses, classification criteria, employment, national economy.

Аннотация: В статье рассматриваются возможности использования передового зарубежного опыта в узбекской практике. Проанализированы роль малого бизнеса и предпринимательства в разных странах мира, классификация работников малого бизнеса и частного предпринимательства в стране, критерии классификации малого бизнеса и частного предпринимательства в разных странах (по численности работников), доля занятости в малом и среднем бизнесе в развивающихся странах в 2024 году и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: малый бизнес, хозяйствующие субъекты, малый и средний бизнес, критерии классификации, занятость, национальная экономика.

KIRISH

Bugungi globallashuv va raqobat muhitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning barqaror rivojlanishi har qanday mamlakat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylangan. O'zbekiston ham ushbu yo'nalishda faol islohotlarni amalga oshirib, iqtisodiyotda xususiy sektor ulushini oshirish, ish o'rinlarini yaratish, aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini ko'paytirish borasida sezilarli yutuqlarga erishmoqda.

Kichik biznes subyektlarining faoliyati nafaqat yalpi ichki mahsulot hajmining o'sishiga, balki davlat byudjetiga tushadigan soliq tushumlarining ko'payishiga, ichki bozorning raqobatbardosh va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirilishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayni vaqtda, bu soha ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash, iqtisodiy faollikni rag'batlantirish va siyosiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynamoqda.

Jahon amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bozor iqtisodiyotiga o'tish jarayoni deyarli hech bir mamlakatda muammosiz, iqtisodiy tebranishlarsiz kechmagan. Shu boisdan ham rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganish, tahlil qilish va mintaqamiz sharoitiga mos keladigan ilg'or yondashuvlarni tatbiq etish kichik biznesni rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. O'zbekiston uchun ham xorijiy tajribalarni chuqur o'rganib, ularni mahalliy xususiyatlar bilan uyg'unlashtirib joriy etish alohida dolzarblik kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kichik va o'rta biznes (KOB) zamonaviy iqtisodiyotni rivojlantirishda asosiy omillardan biri bo'lib, uning muvaffaqiyatli faoliyati ko'plab olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan. Bu tadqiqotlar asosan strategik



boshqaruv, raqamli texnologiyalar, moliyaviy inklyuziya, innovatsiyalar va moliyalashtirish masalalarini qamrab oladi.

Scarborough va Zimmerer o'zining Effective Small Business Management asarida kichik biznesni tashkil etish, yuritish va boshqarishning asosiy tamoyillarini yoritgan. Ularning ta'kidlashicha, kichik korxonalar mamlakat iqtisodiyotining dinamik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi, ayniqsa innovatsiyalar va ish o'rinlari yaratishda.

Birchning ishlaridan ilhomlangan ravishda, Staley va Morse tomonidan ilgari surilgan yondashuvda ham tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiy o'sishning ajralmas qismi sifatida ko'riladi. Ular Entrepreneurship and Economic Development to'plamida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha dasturlarni shakllantirish mezonlarini taklif etgan.

Strategik rejalashtirish va bozor yo'naltirilganlik masalasi ustida Idar, Yusoff va Mahmood tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotda Malayziya misolida kichik biznes faoliyatiga strategik yondashuvning moliyaviy ko'rsatkichlarga ta'siri o'rganilgan. Ular 2012-yilda ta'kidlashicha, strategik rejalashtirish samarali joriy etilgan taqdirda, bu kichik korxonalarning raqobatbardoshligini oshiradi.

Shunga o'xshash xulosalar Kalkan va Bozkurk tomonidan Turkiya kontekstida ham ilgari surilgan. Ularning 2013-yildagi tadqiqotida kichik va o'rta korxona rahbarlarining strategik boshqaruv asboblari munosabati va ularning amaliyotdagi o'rni tahlil qilingan.

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt sohasidagi yangi yondashuvlar esa Goodell, Kumar, Lim va Pattnaik tomonidan chuqur o'rganilgan. Ular 2021-yilda nashr etilgan maqolalarida moliya sohasida sun'iy intellekt va mashina o'rganish texnologiyalarining ilmiy asoslari, mavzulari va tarmoqlarini bibliometrik tahlil qilgan.

Moliyaviy inklyuziya va fintech ekotizimining ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri Senyo, Karanasios, Gozman va Baba tomonidan o'rganilgan. Ular 2022-yilda Ganadagi mobil moliyaviy xizmatlar misolida kichik biznes va kam ta'minlangan aholining moliyaviy xizmatlarga kirish imkoniyatlarini kengaytirish borasida FinTech texnologiyalarining ijobiy ta'sirini tahlil qilgan.

Raqamli moliyaviy xavf tahliliga bag'ishlangan Yuhui va Zhangning 2023-yildagi tadqiqotida Xitoydagi kompaniyalar misolida mintaqaviy raqamli moliyaning moliyaviy xavflarga ta'siri empirik tarzda o'rganilgan. Ularning fikricha, raqamli moliyaviy vositalar moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda muhim vositaga aylangan.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni strategik rejalashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash va raqamli transformatsiyaga yo'naltirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar ilmiy maqolalar, xalqaro tashkilotlar hisobotlari va amaliy tajriba tahlillaridan olingan. Tahlil qilishda taqqoslash, bibliometrik sharh va kontent tahlili usullaridan foydalanildi. Tanlangan yondashuvlar orqali kichik biznesni qo'llab-quvvatlashdagi global va mahalliy yondashuvlar o'rtasidagi farqlar aniqlab berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 50 foizdan ortiqni tashkil etmoqda. Ushbu ko'rsatkich sohaning iqtisodiyotdagi ahamiyatini yaqqol namoyon etsa-da, rivojlanayotgan davlatlarda tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish borasida hali ham sezilarli tafovutlar saqlanib qolmoqda.

Xususan, kam daromadga ega bo'lgan davlatlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari, odatda, kompaniya ochish uchun mamlakatning jon boshiga to'g'ri keladigan daromadning taxminan 50 foizini sarflashi talab etiladi. Aksincha, yuqori daromadga ega bo'lgan davlatlarda esa ushbu ko'rsatkich atigi 4,2 foizni tashkil etadi. Bu esa moliyaviy infratuzilma, ishbilarmonlik muhiti va institutsional yondashuvlar o'rtasidagi farqni ko'rsatadi.

Shuningdek, kredit olish imkoniyatlarini baholovchi yana bir muhim ko'rsatkich – kredit reyestrlarining aholiga qamrovi hisoblanadi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda kredit reyestrda katta yoshdagi aholining o'rtacha qamrovi 3 foizdan kam bo'lsa, yuqori daromadli mamlakatlarda bu ko'rsatkich 22 foizdan ortiqni tashkil etadi. Ushbu tafovutlar bank tizimining ochiqligi, kredit tarixining mavjudligi va moliyaviy inklyuziya darajasidagi farqlar bilan izohlanadi.

1-jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlari soni ichida AQSh yetakchilik qiladi, mamlakatimizda esa jam 1190 mingtani tashkil etishini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, agar 1000 kishiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlarining sonida ham AQSh 74 tani tashkil etib bu ko'rsatkichd ham yuqori darajada, mamlakatimizda esa 14,6 tani tashkil etishini ko'rishimiz mumkin (1-jadval).



1-jadval. Jahonning ayrim davlatlarida kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tutgan o'ri.

Davlatlar nomi	Kichik biznes subyektlari soni (ming)	Har 1000 kishiga to'g'ri keladigan soni	YalMdagi ulushi	Bandlikdagi ulushi (%)	Ishchilar soni
AQSh	19300	74	50-52	54	300
Germaniya	2290	37	50-54	69,5	200-300
Yaponiya	3820	50	52-55	70	300
Buyuk Britaniya	2930	46	50-53	56	300
Fransiya	1980	35	55-62	54	300
Italiya	3920	68	57-60	71	300
O'zbekiston	1190	14,6	54-55	70-74	11-200

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra kichik biznes subyektlari tarkibiga «yakka tartibdagi tadbirkorlar, mikrofirmalar, kichik korxonalar kiradi». O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi 275-son «Iqtisodiy faoliyat turlarini xalqaro tansinflash tizimiga o'tish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Qarori asosida «kichik biznes hamda xususiy tadbirkorlikning tasniflanishi bilan tartibga solinadi va faqatgina bitta «Xodimlar soni» mezonini o'z ichiga oladi»(2-jadval).

2-jadval. Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xodimlari klassifikatsiyasi.

№	Nomlanishi	Xodimlarning o'rtacha yillik soni	
		Mikrofir- malar	Kichik korxonalar
1.	Qishloq xo'jaligi, o'rmon va baliqchilik xo'jaliklari	1-20	21-50
2.	Tog'-kon va karerlar bilan ishlash sanoati	1-20	21-50
3.	Xom ashyoni qayta ishlash sanoati	1-20	21-200
4.	Elektr ta'minoti, gaz tarqatish, bug' va havoni sovitish tizimlari bilan ishlovchi korxonalar	1-20	21-50
5.	Suv ta'minoti, kanalizatsiya, chiqindilarni to'plash va utilitatsiya bilan shug'ullanuvchi korxonalar	1-20	21-50
6.	Ulgurji va chakana savdo tashkilotlari	1-5	6-25
7.	Turar joyi va umumiy ovqatlanish korxonalari	1-10	11-25
8.	Aloqa xizmatlari korxonalari	1-10	11-100
9.	Moliya va sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar	1-20	21-100
10.	Ko'chmas mulk bilan shug'ullanuvchi korxonalar	1-10	11-25
11.	Ilmiy tekshirish institutlari	1-20	21-50
12.	Boshqaruv va yordam ko'rsatish tashkilotlari	1-20	21-50
13.	Ta'lim	1-20	21-50
14.	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1-10	11-25
15.	San'at va ko'ngil ochar dam olish maskanlari	1-20	21-100
16.	Xizmatlarining boshqa turlarini ko'rsatuvchi korxonalar	1-10	11-25
17.	Ulgurji va chakana savdo tashkilotlari	1-5	6-25
18.	Turar joyi va umumiy ovqatlanish korxonalari	1-10	11-25
19.	Aloqa xizmatlari korxonalari	1-10	11-100
20.	Moliya va sug'urta xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar	1-20	21-100
21.	Ko'chmas mulk bilan shug'ullanuvchi korxonalar	1-10	11-25
22.	Ilmiy tekshirish institutlari	1-20	21-50
23.	Boshqaruv va yordam ko'rsatish tashkilotlari	1-20	21-50
24.	Ta'lim	1-20	21-50
25.	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1-10	11-25
26.	San'at va ko'ngil ochar dam olish maskanlari	1-20	21-100
27.	Xizmatlarining boshqa turlarini ko'rsatuvchi korxonalar	1-10	11-25



Xalqaro valyuta jamg'armasining ma'lumotlariga ko'ra, bugungi kunda dunyodagi korxonalarning 90 foizi kichik va o'rta biznesga tegishli bo'lib, ular jahon aholisining 63 foizini ish bilan ta'minlamoqda. Yevropa Ittifoqi miqyosida esa kichik va o'rta biznesning umumiy salmog'i 99,8 foizni tashkil etadi va bu soha aholining uchdan ikki qismini ish bilan ta'minlashda ishtirok etmoqda. Shuningdek, jahon miqyosida kichik biznesning muhim qismi oilaviy korxona shaklida faoliyat yuritmoqda. Masalan, Yevropa davlatlarida yalpi ichki mahsulotning 40–50 foizi, Osiyo mamlakatlarida 65–82 foizgacha, Lotin Amerikasida esa 70 foizga yaqin ulushi oilaviy biznes tomonidan ta'minlanadi. AQSh iqtisodiyotida esa kichik va oilaviy biznesning ulushi 95 foizdan ortiqni tashkil qiladi.

Yuqoridagi raqamlar kichik biznesning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi rolini ham yaqqol ifodalaydi. Kichik biznes subyektlari nafaqat aholini ish bilan ta'minlaydi, balki ularning o'zini o'zi band qilishiga, tadbirkorlik tashabbusining kengayishiga va innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarilishiga ham turtki bo'ladi.

Rivojlangan mamlakatlarda kichik biznesni moliyalashtirishning eng samarali vositalaridan biri – bu davlat buyurtmalarini bajarish tizimidir. Mazkur tizim bir vaqtning o'zida moliyaviy qo'llab-quvvatlash, subsidiyalar ajratish, xomashyo bilan ta'minlash va boshqa imtiyozlarni berishni nazarda tutadi. Ishlab chiqarilgan mahsulotlar uchun barqaror va yuqori narxlarda to'lov amalga oshiriladi. Shu bois, davlat buyurtmalarida ishtirok etish kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini davlat tomonidan bevosita qo'llab-quvvatlashning muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

Umuman olganda, kichik tadbirkorlik rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayotida alohida o'rin egallaydi. Jahon amaliyotida kichik biznesga nisbatan davlat siyosati uni bevosita moliyaviy, texnik yoki infratuzilmaviy jihatdan emas, balki bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishi, o'sishi va o'zini o'zi rivojlantirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga yo'naltirilgan. Kichik biznes – davlat byudjetini to'ldiruvchi manba sifatida emas, balki ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi mexanizm sifatida e'tirof etiladi.

AQShda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish "Kichik biznes texnologiyalarini transfer qilish dasturi" (KBTT) asosida amalga oshirilmoqda. Ushbu dastur doirasida kichik biznes subyektlarining notijorat ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorligi rag'batlantiriladi. KBTT orqali har yili 1 000 dan ortiq innovatsion loyiha amalga oshiriladi. Dasturning asosiy vazifasi – ichki iqtisodiyot uchun muhim hisoblangan yuqori texnologiyali ishlanmalarni tijoratlashtirish va innovatsion mahsulotlarga aylantirishdir.

Shuningdek, AQShda "Kichik biznesni tadqiq etish va rivojlantirish samaradorligini o'rganish" dasturi, hamda "Kichik biznes investitsiya kompaniyasi" (Small Business Investment Company – SBIC) dasturi orqali kichik va o'rta biznes subyektlarini investitsiyalar bilan ta'minlash va ularning barqaror faoliyat yuritishini kafolatlash tizimi joriy etilgan.

Buyuk Britaniyada esa innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun kichik biznes subyektlariga 10 ming funt sterlinggacha bo'lgan grantlar asosida axborot, huquqiy, texnik va moliyaviy yordam ko'rsatiladi. Bunday yondashuvlar ilg'or texnologiyalarni aniqlash va baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, texnik murakkabligi yuqori bo'lgan innovatsion ishlanmalarni sertifikatlashtirish uchun zarur bo'lgan mablag'lar kichik korxonalar uchun muhim muammo bo'lib qolmoqda.

Yaponiya tajribasida esa AQSh modeli asosida kichik va o'rta biznes subyektlari tomonidan ishlab chiqilgan innovatsion mahsulotlarni ro'yxatdan o'tkazish, himoya qilish va patentlashtirish tartibi takomillashtirilgan. Yaponiyada bu jarayon Iqtisodiyot, savdo va sanoat vazirligi tomonidan tartibga solinib, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan kompleks infratuzilma yaratilgan. Shu jumladan, yuqori texnologiyali ishlab chiqaruvchilarni himoya qilish, ular uchun tovar belgilari, patent va mualliflik huquqlarini huquqiy jihatdan mustahkamlash, hatto kutilmagan holatlarda sug'urta himoyasini ta'minlovchi mexanizmlar ishlab chiqilgan (3-jadval).

3-jadval. Turli mamlakatlarda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tasniflash mezonlari (ishchilar soni bo'yicha).

Davlatlar	Mikro korxonalar	Kichik korxonalar	O'rta korxonalar	Kichik va o'rta korxonalar
Yevropa Ittifoqi	1-9	10-49	50-249	1-249
Avstraliya	1-9	10-49	50-199	1-199
Kanada	1-9	10-49	50-499	1-499
Yaponiya	4-9	10-49	50-249	4-249
Janubiy Koreya	5-9	10-49	50-199	5-199



Meksika	1-10	10-50	51-250	1-250
Yangi Zelandiya	1-9	10-49	50-99	1-99
Turkiya	1-19	20-49	50-249	1-249
AQSH	1-9	10-99	100-499	1-499
XXR	1-19	20-49	100-499	1-499
Rossiya	1-15	16-100	101-250	1-250
O'zbekiston	1-10	10-100	100-250	1-250

Bizning fikrimizcha, olib borilgan ilmiy izlanishlar va ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish natijasida quyidagi xulosaga kelish mumkin: bugungi kunda O'zbekistonda o'rta korxonalar institutini shakllantirish va uni qonunchilik asosida belgilash zarurati dolzarb bo'lib bormoqda. Bu borada kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini tasniflashda "korxonadagi ishchilar soni" mezonini eng qulay va taqqoslanadigan ko'rsatkich hisoblanadi. Mikrobiznes, kichik va o'rta korxonalarni yagona tizimda ajratish uchun, respublikamiz sharoitida o'rta korxonalarda ishlovchilarning soni 100–250 kishi atrofida belgilanishi maqsadga muvofiqdir, deb hisoblaymiz.

So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ular faoliyatiga to'sqinlik qiluvchi byurokratik to'siqlarni bartaraf etish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Har yili davlat boshqaruvi tizimi optimallashtirilib, ruxsat berish tartib-taomillari soddalashtirilmoqda, tadbirkorlik subyektlariga erkin faoliyat yuritishi uchun qulay muhit yaratilmoqda. Mustaqillik yillarida litsenziyalash, nazorat va ruxsat berish tizimlari bosqichma-bosqich takomillashtirilib, tadbirkorlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga yo'naltirilgan yangi yondashuvlar shakllantirilgan.


Bugungi global iqtisodiyot sharoitida aksariyat mamlakatlar kichik biznesni rag'batlantirishga qaratilgan strategik yondashuvlarni ishlab chiqmoqda. Bu yondashuvlar har bir mamlakatning iqtisodiy, ijtimoiy va hududiy xususiyatlariga mos holda shakllanmoqda. Masalan, Fransiya, Shvetsiya, Braziliya, Xitoy, AQSh, Germaniya, Italiya, Finlyandiya va Yaponiya tajribalari kichik biznesni samarali muvofiqlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, Braziliyada 1960–1980-yillarda import o'rnini bosuvchi sanoat siyosati joriy etilib, ichki ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari shakllantirilgan. Bu esa nafaqat mahalliy ishlab chiqaruvchilarni inqirozdan asradi, balki ilmiy-tadqiqot va texnologik rivojlanish uchun asos yaratdi.

Qishloq xo'jaligi sohasida ham xorijiy tajriba e'tiborga loyiqdir. Taraqqiy etgan davlatlarda, xususan AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya va boshqa mamlakatlarda yerdan foydalanishning ijaraga asoslangan tadbirkorlik shakli keng tarqalgan. Bunday modelda fermerlar yerga sarmoya kiritadi va ishlab chiqarishni ijara asosida yo'lga qo'yadi. Ayrim davlatlarda yerga egalik va undan foydalanish huquqlari bitta shaxsga tegishli bo'lsa, boshqalarida yer davlat mulki sanaladi (masalan, Isroil, Yangi Zelandiya). Gollandiya, Daniya, Avstraliya kabi mamlakatlarda esa yerga bo'lgan xususiy mulk huquqi qat'iy tartibda cheklangan va nazorat qilinadi. Misol tariqasida, qishloq xo'jaligi sohasida tajribasi bo'lmagan shaxslarga yer sotilishi qonun bilan cheklangan.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik va o'rta biznes subyektlari band aholining qariyb 50 foizini ish bilan ta'minlab, yalpi ichki mahsulotning 50–60 foizgacha bo'lgan qismini shakllantirmoqda. Masalan, 2016-yilda kichik va o'rta korxonalarning YAIMdagi ulushi Buyuk Britaniyada 53–56 foiz, AQShda 50–52 foiz, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa 63–67 foizni tashkil qilgan. AQShda har 1 000 nafar aholiga 74 dan ortiq kichik va o'rta korxona to'g'ri kelgan bo'lib, bu sohaga bo'lgan katta talab va qo'llab-quvvatlashni ko'rsatadi. Yaponiyada ish bilan band aholining 78 foizi, Italiyada 73 foizi, Yevropa Ittifoqida esa 72 foizi aynan shu sektorda faoliyat yuritmoqda.

Kichik biznes tushunchasi dunyo mamlakatlarida turlicha talqin etiladi. AQShda ushbu toifaga 500 nafargacha ishchi ishlaydigan, mustaqil boshqariladigan va bozor ustidan hukmron mavqega ega bo'lmagan korxonalar kiradi. AQShning Kichik biznes ma'muriyati kichik korxonalarni aniqlash uchun maxsus katalog ishlab chiqqan bo'lib, unda tarmoq yo'nalishlari, yillik o'rtacha daromad va bozor ulushi kabi mezonlar asosida tasnif amalga oshiriladi.

O'zbekistonda ham ilg'or xorijiy tajribalardan foydalangan holda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, uni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Rivojlanayotgan davlatlarda bo'lgani kabi, mamlakatimizda ham bu sektor iqtisodiyotning tayanch ustuniga aylanmoqda. Shu sababli, mavjud muammolarni chuqur tahlil etish va ularni bartaraf etishga qaratilgan aniq strategik yondashuvlar ishlab chiqilishi zarur(1-rasm).



1-rasm. 2024-yilda Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznesda bandlik ulushi.

Xususan, kichik va o'rta biznes subyektlarining rivojlanishiga to'sqinlik qilayotgan muammolar qatorida ichki va tashqi bozorlarga chiqishdagi to'siqlar, innovatsiyalarni amaliyotga joriy etishdagi murakkab va byurokratik tizim, inson kapitalining yetarli emasligi hamda past malaka darajasi alohida o'rin tutadi. Ushbu omillar iqtisodiy o'sishning asosiy drayveri bo'lgan kichik biznesning rivojlanishiga jiddiy to'sqinlik qilmoqda.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning tadbirkorlar bilan bo'lgan uchrashuvidan so'ng kompleks chora-tadbirlar dasturlari qabul qilindi. Jumladan, 4-sentabr kuni qabul qilingan davlat rahbarining qaroriga muvofiq, kichik biznes loyihalarini moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlash maqsadida 150 million AQSh dollari miqdorida kredit liniyasi ajratildi. Ushbu kreditlar 7 yilgacha bo'lgan muddatga, qulay shartlarda taqdim etilishi belgilandi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, kichik va o'rta biznes mamlakat iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli, davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar va boshqa manfaatdor tomonlar kichik biznesning rivojlanishini jadallashtirish uchun hamkorlikda harakat qilishi zarur. Ayniqsa, inson kapitalini rivojlantirish, yoshlar va ayollar tomonidan ilgari surilayotgan biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash, barqaror va inklyuziv iqtisodiy muhitni yaratish uchun muhim omil hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik esa bu jarayonda ilg'or tajribalarni joriy etish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Kichik biznes korxonalari faoliyatining dastlabki bosqichlarida moliyaviy resurslarga ehtiyoj yuqori bo'lmasa-da, ularning kengayib borishi bilan aylanma mablag'larga, yangi texnika va texnologiyalarni joriy etish uchun investitsiyalarga bo'lgan talab ortib boradi. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan MDH davlatlarida olib borilgan tadqiqotlarda kichik biznesni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan muammolar chuqur o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu davlatlarda kichik biznes yuqori sur'atlarda rivojlanayotgan bo'lsa-da, moliyalashtirish imkoniyatlari hali ham cheklangan.

Kichik biznes subyektlarini moliyaviy resurslar bilan ta'minlashda muhim vositalardan biri sifatida tijorat banklaridan kredit olish imkoniyatlarini kengaytirish zarur. Bu borada tadbirkorlarga kredit olishda vositachilik qiluvchi xizmatlar tizimi joriy etilmoqda. Jumladan, hujjatlarni to'g'ri va tez rasmiylashtirish, loyiha barcha bosqichlarida yuridik va moliyaviy masalalarda maslahat berish hamda tadbirkorlar manfaatlarini himoya qilish bo'yicha xizmatlar samaradorligi oshirilmoqda. Buning natijasida biznes-rejalarni ko'rib chiqish muddatlari qisqaradi, byurokratik to'siqlar kamayadi va tadbirkorlarning ortiqcha xarajatlari oldi olinadi.

Davlat tomonidan tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning eng samarali mexanizmlaridan biri bu – bank kreditlari bo'yicha kafolat berish tizimi hisoblanadi. Ushbu mexanizm orqali tijorat banklari tomonidan kichik biznes subyektlariga kredit ajratish xavfi kamaytiriladi va moliyaviy resurslarga bo'lgan talabni qondirish imkoniyati oshadi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi ham bu yondashuvning samaradorligini tasdiqlaydi. Masalan, AQShda Kichik biznes ma'muriyati (Small Business Administration – SBA) tomonidan taqdim etilayotgan kredit kafolat dasturi orqali banklar kichik firmalarga yengillashtirilgan shartlarda kredit ajratmoqda. Bu tizim banklar uchun kredit xavfini sezilarli darajada kamaytiradi, tadbirkorlar esa o'z loyihalarini amalga oshirish uchun zarur moliyaviy mablag'larga erkin kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish va ularni O'zbekiston amaliyotiga moslashtirib joriy etish bugungi kunda mamlakatimiz taraqqiyoti uchun muhim strategik omillardan biri hisoblanadi. Rivojlangan davlatlarning boshqaruv, iqtisodiyot, ta'lim, sog'liqni saqlash, raqamli texnologiyalar va boshqa sohalarda qo'lga kiritgan yutuqlari chuqur tahlil qilinib, mahalliy sharoitga moslashtirilgan holda joriy etilishi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Biroq, har qanday xorijiy tajriba to'g'ridan-to'g'ri andoza sifatida emas, balki tahliliy va tanqidiy yondashuv asosida o'rganilishi lozim. Faqat shundagina ularning ijobiy jihatlari milliy qadriyatlar, ijtimoiy-iqtisodiy muhit va mavjud institutsional sharoitlar bilan uyg'unlashtirilgan holda samarali tarzda tatbiq etilishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tajribani o'rganish bu – yangilikka intilish, ilg'or bilim va texnologiyalarni o'zlashtirish orqali mamlakatning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan harakatdir. Ularni maqsadli va puxta rejalashtirilgan tarzda milliy strategiyalar bilan uyg'unlashtirib yo'naltirish orqali O'zbekistonning barqaror va jadal iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Goodell, J. W., Kumar, S., Lim, W. M., & Pattnaik, D. Artificial intelligence and machine learning in finance: Identifying foundations, themes, and research clusters from bibliometric analysis. *Journal of Behavioral and Experimental Finance*, 32, 100577.
2. Idar, R., Yusoff, Y., Mahmood, R. The effect of market orientation as mediator to strategic planning practices and performance relationship: Evidence from Malaysian SMEs. *International Conference on Small and Medium Enterprises Development with a Theme "Innovation and Sustainability in SME Development" (ICSMED 2012): Procedia Economics and Finance*, 4, 68–75.
3. Kalkan, A., Bozkurk, Ö. C. The choice and use of strategic planning tools and techniques in Turkish SMEs according to attitudes of executives. *9th International Strategic Management Conference. Procedia – Social and Behavioral Sciences*, 99, 1016–1025.
4. Scarborough, N. M., Zimmerer, T. W. *Effective Small Business Management*. Macmillan Publishing Co., USA.
5. Senyo, P. K., Karanasios, S., Gozman, D., Baba, M. FinTech ecosystem practices shaping financial inclusion: The case of mobile money in Ghana. *European Journal of Information Systems*, 31(1), 112–127.
6. Staley, E., Morse, R. Developing entrepreneurship: Elements for a program. In P. Kilby (Ed.), *Entrepreneurship and Economic Development*, 357–384.
7. Swanson, D., Webster, L. *Private Sector Manufacturing in the Czech and Slovak Republic: A Survey of Firms*. Washington, DC: The World Bank.
8. *The New SME Definition. User Guide and Model Declaration*. Enterprise and Industry Publications, European Commission, p. 14.
9. Yuhui, D., Zhang, L. Regional digital finance and corporate financial risk: Based on Chinese listed companies. *Emerging Markets Finance and Trade*, 59(2), 296–311.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
